

JINOYAT HUQUQIDA ISHTIROKCHILIK INSTITUTI VA UNING HUQUQIY BELGILARI

Mazaidov Avazbek G‘ulomovich

O‘zLiDep Qo‘qon shahar kengashi deputati, Sud-huquq va
Korrupsiya faoliyati bo‘yicha doimiy komissiya a’zosi,
FarDU yurisprudensiya yo‘nalishi 3-bosqich talabasi.

Annotatsiya:

ushbu maqolada muallif tomonidan jinoyat huquqida ishtirokchilik instituti, ishtirokchilik tushunchasi, ijtimoiy xavflilik xususiyatlari, jinoyat sodir etishda ishtirokchilik institutining huquqiy belgilari xususida soha mutaxassislarning fikrlari haqida so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar: jinoyat, ishtirokchilik tushunchasi, ishtirokchilikning huquqiy belgilari, og‘irlashtiruvchi holat, jinoyatni kvalifikatsiya qilish, jazo tayinlash, ikki yoki undan ortiq shaxs.

Аннотация:

в данной статье автором рассмотрены взгляды специалистов отрасли на институт соучастия в уголовном праве, понятие соучастия, особенности общественной опасности, правовые признаки института соучастия в совершении преступления.

Ключевые понятия: преступление, понятие соучастия, правовые признаки соучастия, отягчающее обстоятельство, квалификация преступления, назначение наказания, два и более лиц.

Abstract:

In this article, the author examines the views of industry experts on the institution of complicity in criminal law, the concept of complicity, the features of public danger, the legal signs of the institution of complicity in the commission of a crime.

Key concepts: crime, the concept of complicity, legal signs of complicity, aggravating circumstance, qualification of the crime, sentencing, two or more persons.

Jinoyatlarni bir necha shaxs tomonidan birgalashib sodir etilishi bu sodir etilgan jinoyatning ijtimoiy xavflilagini oshiradi, og‘irlashtiruvchi holat sifatida baholanib, jazo tayinlashda ahamiyat kasb etadi. Ushbu fikrlardan ko‘rinib turibdiki, jinoyat huquqida jinoyatda ishtirokchilik instituti mavjud bo‘lib, u mustaqil tadqiqot obyekti sifatida baholanadi. Demak, Jinoyat kodeksining Maxsus qismi ma’lum bir moddasida nazarda tutilgan jinoyatni bir kishi sodir etgan bo‘lsa, tabiiyki, jinoyatni kvalifikatsiya qilish hamda jinoyat sodir etgan shaxsga jazo tayinlash masalalari jinoyat qonunida nazarda tutilgan umumiylasoslarda hal qilinadi. Biroq jinoyat ikki yoki undan ortiq shaxslar tomonidan ishtirokchilikda sodir etilgan bo‘lsa, ya’ni ishtirokchilik muayyan guruh, uyushgan guruh yoki jinoiy uyushma shaklida sodir etilganda masalaga boshqacha yondashuv kelib chiqadi. Bunda jinoyatning mohiyati va mazmuni o‘zgaradi. Chunki muayyan jinoyat ikki yoki undan ortiq shaxslar tomonidan sodir etilsa, jinoyatda qatnashayotgan kishilar harakati birlashadi va ular o‘rtasida kelishuv yuz beradi.

Jinoyat huquqi sohasining taniqli olimlaridan M.Usmonaliyev fikricha¹, ishtirokchilikda juda xavfli jinoyatlar sodir etilishi, jinoyatni amalga oshirish rejasining puxta ishlab chiqilganligi, jinoyatni fosh qilishning qiyinligi va boshqa qator muammolar kelib chiqaradi. Shu sababli ham qonun chiqaruvchi organ ishtirokchilikda sodir etiladigan jinoyatlarning ana shunday xususiyatlarini hisobga olib ishtirokchilikda sodir etiladigan jinoyatlarni kvalifikatsiya qilish va jazo tayinlashning alohida qoidalarini ishlab chiqqan.

Jinoyat huquqida ishtirokchilik instituti xususida M.Rustamboyev ham “bir guruh shaxslar tomonidan sodir etilgan jinoyatlarning ijtimoiy xavflilik darajasi yuqoridir, chunki bir kishi tomonidan sodir etilgan qilmishlardan ko‘ra bir guruh shaxslar tomonidan amalga oshirilgan jinoyat tufayli ijtimoiy munosabatlarga ko‘proq zarar yetkaziladi”² degan fikrni aytib o‘tadi. Darhaqiqat, jinoyatning uyushgan guruh yoki jinoiy uyushma tomonidan amalga oshirilishi yengil kechadi, iz qoldirmaslik va guvohlarni yo‘qotish osonlashadi, guruh rahbarlarini fosh etish qiyinlashadi va ularning yashirinishi osonlashadi.

Albatta jinoyat huquqi sohasida faoliyat yuritgan olimlarimiz ishtirokchilik institutiga xos bo‘lgan huquqiy belgilar to‘g‘risida o‘z ilmiy qarashlarini bildirishgan. Masalan, M.Usmonaliyevning fikricha, jinoyatni ishtirokchilikda sodir

¹ M.Usmonaliyev. Jinoyat huquqi.Umumiylasoslari qism. Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik. M. Usmonaliyev. T.: “Yangi asr avlod” 2010. 276-bet.

² M.Rustamboyev. Jinoyat huquqi (Umumiylasoslari qism) Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik. Toshkent – “ILM ZIYO” – 2006. 289-bet.



etilgan deb hisoblash uchun jinoyat huquqida maxsus belgilar ishlab chiqilgan bo‘lib, ular quyidagilar:

- a) jinoyatni sodir etishda ikki yoki undan ortiq shaxslarning ishtirok etayotganligi;
- b) jinoyatda ishtirok etayotgan shaxslarning aqli rasoligi va jinoyat subyekti yoshiga yetganligi;
- v) ular o‘rtasida obyektiv va subyektiv bog‘liqlikning mavjudligi³ dan iboratdir. M.Rustamboyev ishtirokchilikning o‘ziga xos obyektiv va subyektiv belgilarini e’tirof etadi.

Bundan tashqari, Jinoyatda ishtirokchilikning belgilari – obyektiv va subyektiv belgilarga bo‘linadi. Jinoyatda ishtirokchilikning obyektiv belgisi jinoyatni sodir etishda ikki yoki undan ortiq shaxsning (miqdor ko‘rsatgichi) birgalikda (sifat ko‘rsatgichi) qatnashishi tushuniladi. Jinoyatni birgalikda sodir etish deb umumiyl jinoiy maqsadni amalga oshirish uchun hamda umumiyl jinoiy oqibatni yuz berishini ko‘zlab sodir etish tushuniladi.⁴ Demak, ishtirokchilikda birgalikdagi harakat umumiyl maqsad va umumiyl jinoiy oqibatni nazarda tutadi hamda ishtirokchilarning harakatlari va yuzaga kelgan oqibat o‘rtasida sababiy bog‘liqlik bo‘lishi talab etiladi. Sababiy bog‘liqlikni bo‘lmasligi ishtirokchilikni istisno etadi. Jinoyatda ishtirokchilikning subyektiv belgisi jinoyatni o‘zaro xabardorlik va kelishganlik asosida qasddan sodir etilishi tushuniladi. Jinoyatda ishtirokchilikning subyektiv belgisi sifatidagi o‘zaro xabardorlik bu jinoyatni sodir etishda ishtirok etayotgan shaxslar mazkur jinoyatni birgalikda sodir etayotganliklarini anglaydilar hamda yakka holda harakat qilmayotganliklarini tushunadilar. Jinoyatda ishtirokchilikning subyektiv belgisi sifatidagi kelishganlik bu shaxsni boshqa shaxs bilan birgalikda jinoyat sodir etish istagini mavjudligini anglatadi. Shunday qilib, jinoyat ishtirokchilikda sodir etilgan deb topilishi uchun ishtirokchilikning obyektiv va subyektiv belgilari majmui bo‘lishi talab etiladi. Ya’ni jinoyatda ikki yoki undan ortiq aqli raso va jinoiy javobgarlik yoshiga to‘lgan shaxsning umumiyl qasd bilan qamrab olingan harakatni birgalikda sodir etilishi tushuniladi.

Demak, yuqorida keltirilgan fikrlardan kelib chiqib aytish lozimki, jinoyat sodir etishdagi ishtirokchilik instituti javobgarlikni og‘irlashtiradigan holatlardan biri hisoblanadi. U javobgarlikni og‘irlashtiribgina qolmasdan, qilmishning ijtimoiy

³ M.Usmonaliyev. Jinoyat huquqi.Umumiyl qism. Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik. M. Usmonaliyev. T.: “Yangi asr avlod” 2010. 277-bet.

⁴ Jinoyat huquqi. (Umumiyl qism) Yuridik texnikum o‘quvchilari uchun darslik. Mas’ul muharrir: yu.f.f.d (PhD) X.Ochilov – T.: Adolat nashriyoti, 2020. 106-b.



xavflilagini ham oshiradi, sodir etilgan qilmishni tergov qilishda, jinoyatlarni to‘liq va o‘z vaqtida ochilishiga to‘sinqinlik qiladigan vaziyatlarni ham keltirib chiqaradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –T.: “O‘zbekiston”, 2023 y.
2. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi. <https://lex.uz/docs/111453>.
3. M.Usmonaliyev. Jinoyat huquqi.Umumiy qism. Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik. M. Usmonaliyev. T.: “Yangi asr avlodi” 2010. 276-bet.
4. M.Rustambo耶ev. Jinoyat huquqi (Umumiy qism) Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik. Toshkent – “ILM ZIYO” – 2006. 289-bet.
5. M.Usmonaliyev. Jinoyat huquqi.Umumiy qism. Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik. M. Usmonaliyev. T.: “Yangi asr avlodi” 2010. 277-bet.
6. Jinoyat huquqi. (Umumiy qism) Yuridik texnikum o‘quvchilari uchun darslik. Mas’ul muharrir: yu.f.f.d (PhD) X.Ochilov – T.: Adolat nashriyoti, 2020. 106-b.

